

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	 Beton va temir-beton inshootlardagi yoriq (darz)larni bartaraf etish uchun gidroizolatsiyali inyeksiya tarkibini ishlab chiqish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: mineral qo‘shimchalar yordamida modifikatsiyalangan, ekspluatatsion xossalari yaxshilangan ko‘p komponentli sementli kompozitsion materiallar va ularni ishlab chiqarish texnologiyalariga oid mavjud ilmiy-texnik manbalar, amaliy tajribalar, me‘yoriy-texnik hujjatlar hamda ilg‘or uslubiyatlarni o‘rganish va amaliy qoidalarni tahlil qilinadi; agressiv muhit ta’sirida vujudga keladigan yoriq (darz)larni samarali bartaraf etish maqsadida, qurilish va ta’mirlash ishlarida qo‘llash uchun yuqori ekspluatatsion ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan ko‘p komponentli sementli kompozitsion materiallar asosida gidroizolyatsiyali in’yeksion material tarkibini ishlab chiqiladi; ekspluatatsion xossalari yaxshilangan ko‘p komponentli sementli kompozitsion materiallar asosida, siqilish va egilishga yuqori darajada mexanik mustahkam, gidrofoblik xususiyatiga ega hamda agressiv muhit ta’siriga bardoshli beton qorishmasining optimal tarkibini ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.